



The Internet and the right to use the Internet

Jakhongir KUDRATILLAYEV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
15 July 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
15 August 2024

Keywords:

the Internet,
the right to use the Internet,
natural right,
recognition as an
independent right,
IP address.

ABSTRACT

The article is devoted to the analysis of the researches of foreign and domestic scientists, in which the Internet and the right to use the Internet are covered, in particular, the terms "Internet" and "the right to use the Internet" are analyzed. The article reveals the international and local legal system related to the right to use the Internet. Based on theoretical data, possible directions of further development of "Internet" and "Internet access" were determined.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss7/S-pp201-205>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Internet va Internetdan foydalanish huquqi

Kalit so'zlar:

Internet,
Internetdan foydalanish
huquqi,
tabiiy huquq,
mustaqil huquq sifatida tan
olish,
IP adres.

ANNOTATSIYA

Maqola xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ularda Internet va Internetdan foydalanish huquqi yoritilgan, xususan, "Internet" va "Internetdan foydalanish huquqi" atamasi tahlil qilingan. Maqolada Internetdan foydalanish huquqibilan bog'liq xalqaro va mahalliy qonunchilik tizimi ochib berilgan. Nazariy ma'lumotlar asosida "Internet" va "Internetdan foydalanish huquqi" keyingi rivojlanishining mumkin bo'lgan yo'nalishlari aniqlandi.

¹ Teacher, Tashkent State University of Law. E-mail: jakhongir.kudratillayev.1010@gmail.com

Интернет и право пользования Интернетом

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интернет,
право пользования
интернетом,
естественное право,
признание как
самостоятельное право,
IP-адрес.

Статья посвящена анализу исследований зарубежных и отечественных ученых, в которых освещаются интернет и право пользования интернетом, в частности анализируются термины «интернет» и «право пользования интернетом». В статье раскрывается международная и отечественная правовая система, связанная с правом использования сети интернет. На основе теоретических данных были определены возможные направления дальнейшего развития «интернета» и «доступа в интернет».

Internet – IP va IP-paketlarni yo‘naltirish asosida qurilgan butunjahon birlashgan kompyuter tarmoqlari tizimidir. U o‘ziga ulangan kompyuterlar bilan birgalikda axborot jamiyatining rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. 2011-yil 3-iyunda BMTning internetdan erkin foydalanishni insonning asosiy huquqi sifatida tan oluvchi qarori qabul qilindi. Biroq, bu dastlabki qarashda ko‘ringanidek, haqiqatan ham shunchalik ajoyib va foydali ekanmi? Keling, vaziyatni birgalikda tahlil qilib ko‘raylik. Xo‘sh, cheksiz internet olamidan foydalanuvchini qanday kutilmagan xavf-xatarlar kutib turishi mumkin?

Bugungi kunda internet inson ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Internetga kirishni cheklash insonning jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu sababli, bugungi kunda Internetga kirish huquqini inson hayoti, axborot olish huquqi yoki erkin harakatlanish kabi asosiy inson huquqlari qatoriga kiritish zarurati masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Internetga kirish huquqi Internetdagi barcha ma‘lumotlarga kirish huquqi sifatida ham, Internetga bevosita ulanish huquqi sifatida ham qaralishi mumkin. Birinchi huquq xalqaro huquqda to‘liq tan olingan bo‘lsa-da, Internetga jismoniy kirish huquqini xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlash zarurati hanuzgacha bahsli masala bo‘lib qolmoqda. Shu ma‘noda, Internetga kirish huquqi “uzib qo‘yilmaslik huquqi” sifatida talqin etilishi mumkin, chunki aynan barcha insonlar uchun, vaqt, siyosiy vaziyat va ijtimoiy sharoitlardan qat‘i nazar, Internetdan erkin va teng foydalanish imkoniyati ushbu huquqni mustahkamlashning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu masala yuzasidan bahslar va muhokamalar to‘lqini 2011-yildagi “Arab bahori” voqealaridan so‘ng avj oldi. Bu paytda Misr, Liviya va Suriyada hukumatga qarshi ommaviy g‘alayonlar vaqtida hokimiyat tomonidan aholining internetdan foydalanishi cheklangan edi. Internet namoyishlar va davlat to‘ntarishlarini uyushtirish, ishtirokchilar o‘rtasida muloqot va axborot almashinuvi uchun qulay maydon bo‘lib xizmat qildi. Davlatlarning bu harakatlariga jahondagi demokratik mamlakatlar tomonidan keskin tanqidiy munosabat bildirildi. G‘arb mamlakatlari, tarmoqqa kirishni to‘sib qo‘yishni qo‘zg‘olonchilarni nazorat qilishga urinish sifatida baholab, buni ularning erkinliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklash deb hisobladi. 2012-yilda BMT Internetga kirish huquqini insonning ajralmas huquqi sifatida e‘tirof etdi. BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi vakili Frank La Runing 2011-yilgi ma‘ruzasi asosida qabul qilingan qarorida shunday deyiladi: “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalarga muvofiq, alohida, mustasno va aniq belgilangan holatlardan tashqari, Internetdagi axborot yo‘lida iloji boricha

kamroq to'siqlar bo'lishi lozim". Dunyoning turli mamlakatlarida odamlarni ataylab internetga kirish imkoniyatidan mahrum qilish endi inson huquqlarining buzilishi sifatida e'tirof etilmoqda.

2016-yil iyulda BMT Internetda fikr bildirish erkinligi huquqi bo'yicha kengaytirilgan rezolyutsiyani qabul qildi: BMT Bosh Assambleyasi davlatlarni "...shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilish maqsadida yozishmalarni tekshirish, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarni ushlab qolish va to'plash choralari, jumladan ommaviy kuzatuv amaliyoti bilan bog'liq tartib-qoidalar, amaliyot va qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqishga" da'vat etdi. Shuningdek, u yana bir bor Internetga kirish huquqini insonning asosiy huquqi sifatida e'tirof etdi va uning to'siqsiz amalga oshirilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash davlatlarning vazifasi ekanligini ta'kidladi. Frank La Ryu ma'ruzasi va BMT rezolyutsiyasidan tashqari, bu g'oyaning taniqli olimlar, nufuzli siyosatchilar va jamoat arboblari orasida ham ko'plab tarafdorlari mavjud. Butunjahon internet tarmog'ining asoschisi Tim Berners-Li 2011-yilda Massachusetts texnologiya institutining simpoziumlaridan birida so'zga chiqib, internetga kirish imkoniyatini ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoj bilan tenglashtirgandi. Davlat miqyosida Estoniya, Finlyandiya, Fransiya, Gretsiya, Ispaniya, Kosta-Rika allaqachon internetga kirishni o'z fuqarolarining asosiy huquqi sifatida e'lon qilgan va qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'ygan.

Shunday qilib, 2000-yilda Estoniya parlamenti Ommaviy axborot to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Unda internetdan foydalanish inson va fuqaroning asosiy huquqlaridan biri sifatida e'tirof etildi. 2000-yildan boshlab Estoniya Konstitutsiyasiga ushbu mamlakatning barcha fuqarolari internetga kirish huquqiga ega ekanligi haqidagi qoida kiritildi. Bu huquqning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi tarixga "Estoniya axborot inqilobi" nomi bilan kirdi. Internetga kirish huquqi insonning boshqa asosiy huquqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Internetdan erkin foydalanish insonning o'zini namoyon etish vositalaridan biri bo'lib, so'z erkinligi va shaxsiy fikrni ifoda etish erkinligi kabi ahamiyatlidir. Har bir inson o'z fikrlarini "onlayn" tarzda erkin bayon qila oladi. Internet, shuningdek, yig'ilishlar erkinligi bilan ham chambarchas bog'liq. Texnologik taraqqiyot odamlarning o'zaro muloqot shakllariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda: Internet norozilik harakatlari va namoyishlarni tashkil etish uchun o'ziga xos maydonga aylandi. Shu munosabat bilan Shvetsiya tashqi ishlar vaziri Karl Bildt quyidagicha fikr bildirdi: "Biz uchun eng asosiy tamoyil shundan iboratki, odamlarning oflayn holda ega bo'lgan huquqlari – so'z erkinligi, jumladan axborot izlash erkinligi, yig'ilishlar va birlashmalar erkinligi – onlayn muhitda ham himoyalaniishi lozim".

Internetga kirishni asosiy huquq sifatida mustahkamlashga qarshi chiquvchilardan biri amerikalik olim, "Internet otasi" deb nom olgan Vinton Serfdir. U 2012-yildagi maqolasida o'z nuqtai nazarini shunday asoslaydi: Internet inson huquqlarini amalga oshirishning kuchli vositasi bo'lsa-da, undan foydalanish imkoniyati o'z-o'zidan huquq hisoblanmaydi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi sudyasi 2011-yil noyabr oyida Venada o'tkazilgan "Bizning Internet – bizning huquqlarimiz, erkinliklarimiz – Yevropa Kengashining Internetni boshqarish strategiyasi sari" nomli konferensiyada so'zga chiqib, quyidagi masalaning dolzarbligini ta'kidladi: Internetdan foydalanish inson huquqi hisoblanadimi, agar shunday bo'lsa, bu davlatlarga qanday majburiyatlarni yuklaydi? Insonning internetga kirish huquqini asosiy huquq sifatida tan olish davlatga har bir fuqaroga bu imkoniyatni ta'minlash majburiyatini yuklaydi hamda davlat va shaxsning o'zi tomonidan ushbu huquqqa nisbatan tajovuzlardan himoya vositalarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Barcha inson huquqlarining xos tamoyili ularning umumiyligi, ya'ni istisnosiz hamma uchun taalluqli va ajralmas ekanligi hisoblanadi. Internetga kirish uchun inson internet-provayder xizmatlariga haq to'lashi lozim. Shunday qilib, Internetga kirish huquqi o'ziga xos tarzda shakllanishi kerak: bu insonning ajralmas, asosiy huquqi bo'lib, uni har oyda to'lab turishi lozim.

Bu fikrga olimlar qarshi chiqmoqda. Ular Internetni zamonaviy jamiyat hayotida insonning ishtirok etishining asosiy vositasi, uni boshqa odamlar, davlat va butun jahon hamjamiyati bilan bog'lovchi unsur sifatida ko'rishmoqda. Frank La Rue ta'kidlashicha, internetga kirishni cheklash, qanday asoslanishidan qat'i nazar, inson huquqlaridan bo'lgan so'z va fikr erkinligini cheklash bilan tenglashtirilishi kerak. Aholini ushbu xizmat bilan ta'minlash masalasida Frank La Rue ning nuqtai nazari quyidagicha: "Internet bir qator inson huquqlarini ro'yobga chiqarish, tengsizlikka qarshi kurashish hamda rivojlanish va taraqqiyotni tezlashtirish uchun muqobili yo'q vositaga aylandi. Internetdan hamma foydalana olishini ta'minlash barcha davlatlar uchun ustuvor vazifa bo'lishi lozim".

2011-yilda YEXHTning OAV erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Dunya Miyatovich Xelsinki Komissiyasi oldida so'zlab, quyidagilarni ta'kidladi: "Internetning demokratiya va OAV erkinligini rivojlantirishdagi, shuningdek, insonlarning o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatini ta'minlashdagi noyob hissasini e'tirof etishimiz lozim. Internetga kirish huquqini insonning asosiy huquqlari darajasida mustahkamlash, ya'ni bu huquqqa konstitutsiyaviy maqom berish zarur" [10].

Savol tug'iladi: bunday sharoitda Internetga kirishni insonning yangi huquqi sifatida qabul qilish mumkinmi? Internetga kirish xizmatining yangi huquq emasligiga oid fikr mavjud. Bu qarash qisman zamonaviy internetning asoschilari orasidagi bir shaxsning nuqtai nazari bilan bog'liq. V. Serf ta'kidlashicha, internetga kirish huquqini inson huquqlari qatoriga kiritib bo'lmaydi, chunki texnologiya hayot va jismoniy daxlsizlik kabi zaruriy ehtiyoj emas. Internet faqatgina maqsadga erishish vositasi hisoblanadi (axborot erkinligini ta'minlash uchun ma'lumot olish imkoniyati). Bir qator rossiyalik tadqiqotchilar ham xuddi shunday nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlab, Internetga kirishni huquqlarning o'ziga emas, balki huquqlar kafolatiga kiritishadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu fikrlar 2012-yilda bildirilgan edi. Darhaqiqat, dastlab Internetga bo'lgan munosabat uning ta'minlovchi vazifasiga asoslangan edi.

Internet dastlab fikr erkinligini, keyinchalik esa ijtimoiy hayotda ishtirok etish huquqini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida qaralgan edi. Biroq, hozirda deyarli barcha ma'lumotlar Internetga ko'chib o'tmoqda, shu sababli, Internetga kirishsiz axborot erkinligini amalga oshirish imkonsiz bo'lib qoldi.

Internetga kirish muammosi kamida moliyaviy, siyosiy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab masala ekanligini ta'kidlash muhimdir. Internetga ulanishni ko'pchilik universal xizmat munosabati sifatida ko'rsa-da, axborotni erkin izlash, Internetdan uzilmaslik huquqi, Internetdan xavfsiz foydalanish va istalmaydigan axborotdan himoyalanih huquqi Internetning mazmuniy jihati bilan shunchalik uzviy bog'langanki, ular axborot huquqining tarmoqlarini tashkil etadi. 2016-yilda qabul qilingan Fransiyaning "Raqamli respublika (davlat) to'g'risida"gi qonuni bejiz Internet kirish huquqini kafolatlamagan. Agar kam ta'minlangan shaxslar Internetga to'lov qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ularning Internet aloqasi provayderlar tomonidan departament xizmatlariga moddiy yordam so'rovi tayyorlanishi va ko'rib chiqilishi

davomida qo'llab-quvvatlanadi. Boshqacha aytganda, texnologiya asosiy huquqqa shunchalik chuqur singib ketadiki, u huquqning ajralmas qismiga aylanadi. Transformatsiyalovchi ta'sirga ega bo'lgan Internet axborot olish huquqini sezilarli darajada o'zgartirishga qodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Цит. по: Смирнов С. ООН причисляет доступ в интернет к основным правам человека [Электронный ресурс] URL: www.vedomosti.ru / (дата обращения: 01.10.2017).
2. ООН приняла расширенную резолюцию о праве на свободу высказываний в интернете [Электронный ресурс] URL: <http://www.osce.org/ru> / (дата обращения: 30.10.2017).
3. Jon Brodtkin. Berners – Lee: Web access is a 'human right' [Электронный ресурс] URL: <http://www.networkworld.com> / (дата обращения: 11.10.2017).
4. Закон о публичной информации (Эстония) // Право знать: история, теория, практика. 2002. № 5–6 (65–66). С. 40 – 41.
5. Vinton G. Cerf. Internet Access Is Not a Human Right [Электронный ресурс] URL: <http://www.nytimes.com> (дата обращения: 21.10.2017).
6. Vinton G. Cerf. Internet Access Is Not a Human Right [Электронный ресурс] URL: <http://www.nytimes.com> (дата обращения: 21.10.2017).
7. Andris Mellakauls. Access to the Internet – a human right? [Электронный ресурс] URL: <http://www.coe.int> / (дата обращения: 11.10.2017).
8. Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression [Электронный ресурс] URL: <http://www.ohchr.org> / (дата обращения: 23.10.2017).
9. *Cerf V. G.* Internet Access Is Not a Human Right // The New York Times, 4 January 2012. Available at: <https://www.nytimes.com/2012/01/05/opinion/internet-access-is-not-a-human-right.html>.
10. Арановский К. В., Князев С. Д., Хохлов Е. Б. О правах человека и социальных правах // Сравнительное конституционное обозрение. 2012. № 4. С. 61—91.
11. URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/affichTexte.do?cidTexte=JORFTEXT000033202746&fastPos=1&fastReqId=1872424473&categorieLien=id&oldAction=rechTexte>.